

## **TO'G'RI SOLIQLAR BO'YICHA TUSHUMLARNING O'RTA MUDDATLI PROGNOZLASHTIRISH METODLARI.**

*TDIU Mustaqil tadqiqotchisi*

*Xo'jaqo'lov Ramshid Yunusovich*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada respublikamizda soliq salohiyatini hisoblash formulalari keltirilgan shuningdek soliq-siyosatini takomillashtirish, byudjetda xarajatlar ehtiyojlarini va tenglashtirish dasturlarining asosiy jihatlarini aniqlashda mavjud innovatsion usullar va uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni takomillashtirish, iqtisodiy-matematik modellashtirish va prognozlashning keng ko'lamli usullarini qo'llash takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** soliq, byudjet siyosati, byudjet, soliq ma'murchiligi, mahaliy byudjet, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil, soliq yuki, reprezentativ soliq stavkasi, o'rtacha stavka soliq hisoboti, soliq tushumlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

**Kirish:** Soliq tarqalishiga chidamli, raqamlashtirishni hal qilish uchun yaxshiroq jihozlangan va kamtarona global soliq tushumlarini oshiradi. Global korporativ daromad solig'i tushumlari o'sishi taxmin qilinmoqda qariyb 6 foizga (YaIMning 0,15 foizi) - investitsiyalar hajmining biroz pasayishi hisobiga. Bu soliq raqobati bosimi va uzoq muddatda daromad ta'siri kattaroq bo'lishi mumkin foydaning o'zgarishi susayadi. Mamlakatga xos ta'sirlarni o'lchash qiyin, lekin ehtimol shunday bo'ladi. Davlat byudjeti daromadlarini prognozashtirishdan asosiy maqsad, rejalashtirilgan moliyaviy davr uchun soliq salohiyatining berilgan parametrlari doirasida byudjet tizimidagi soliqlar va yig'implarning iqtisodiy asoslangan (optimal) miqdorini aniqlash. Prognozlarni ishlab chiqish va ulardan foydalanishning eng muhim sohalaridan biri soliq tizimidir. Soliqlarni prognozlash - bu byudjet tizimiga soliqlar va yig'implarning soliq salohiyati va tushumlarini baholash bo'lib, butun mamlakat va uning hududlari rivojlanishini ijtimoiy-

iqtisodiy prognozlash asosida amalga oshiriladi. Soliqlarni prognozlash har bir soliq va yig'im bo'yicha soliq solinadigan bazalarni aniqlash, ularning bir necha davrlar bo'yicha tushum dinamikasini kuzatish, soliqlar va yig'implarni undirish darajalarini, yo'qotilgan daromadlar (imtiyozlar, preferensiyalar) hajmini, soliq qarzi holatini, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar natijalarini baholash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda soliqlar va yig'implarni prognozlash asosan davlat byudjetining kelgusi yil uchun rejalashtirilgan xarajatlari asosida hisoblanayotganligi, natijada yillik prognoz smetalarning haqiqatga mos kelmasligiga olib kelib, o'z navbatida rejalashtirilgan daromadlarni byudjetga jalb etish bo'yicha soliq organlari faoliyatida qiyinchiliklar tug'diradi.

Misol uchun, prognoz ko'rsatkichlari asossiz ravishda yuqori darajada belgilanishi natijasida 2022-yilda foyda solig'i bo'yicha 845,8 mlrd.so'mga (prognozga nisbatan -2,2%), aksiz solig'i bo'yicha 1 473,4 mlrd.so'mga (prognozga nisbatan -10%) va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan 419,3 mlrd.so'mga (prognozga nisbatan -10%) ta'minlanmay qolishiga olib keldi. Shu kabi, 2021-yilda ham prognoz ko'rsatkichlari yuqori darajada belgilanishi natijasida aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha 246,9 mlrd.so'm (prognozga nisbatan -13%), qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha 170,5 mlrd so'm (-0,7%), jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha 59,8 mlrd.so'm (-6,4%) tushumlar ta'minlanmasdan qolgan.

Yoki aksincha, prognozning aniq hisob-kitoblarsiz belgilanishi oqibatida ayrim soliq tushumlari bo'yicha prognoz juda yuqori darajada oshirib bajarilishi kuzatilmoqda. Misol uchun, 2022-yilda prognoz ko'rsatkichlari jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 2 164,9 mlrd.so'm (prognozga nisbatan +10 %), yuridik shaxslarning yer solig'i bo'yicha 525,4 mlrd.so'm (+18%), yuridik shaxslarning mulk solig'i bo'yicha 788,2 mlrd.so'm (+35%) oshig'i bilan bajarilgan. Shu kabi, 2021-yilda prognoz ko'rsatkichlari foyda solig'i bo'yicha 8 044,1 mlrd.so'm (prognozga nisbatan +26,5 %), yuridik shaxslar yer solig'i bo'yicha 841 mlrd.so'm (+46%), suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha 308 mlrd.so'm (+82%) oshig'i bilan bajarilgan.

Yuqoridagi misollar davlat byudjeti daromadlarini prognozlashning aniq tahlillarga yondashuvchi zamonaviy metodikasini joriy etilishi zarurati yuzaga kelayotganini ko'rsatmoqda. Soliq siyosatini amalga oshirish doirasida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda soliq tushumlarining to'liqligi va barqarorligini ta'minlash, shuningdek, davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalariga soliq tushumlarini batafsil va asosli prognozlashni amalga oshirish maqsadida soliq qo'mitasi tomonidan "Byudjet daromadlarini prognozlash metodologiyasi" ishlab chiqilgan. Soliq qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo'yicha 2022-yil uchun foyda solig'i va daromad solig'i tushumlari prognozining dastlabki hisob-kitoblari Moliya vazirligi va Soliq qo'mita tomonidan amalga oshirilayotgan prognozlash metodologiyasida ayrim nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Masalan, foyda solig'i bo'yicha Moliya vazirligi tomonidan 2022-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari 38,5 trln.so'm miqdorida belgilangan bo'lsa, Soliq qo'mitasi metodologiyasi qo'llangan holda amalga oshirilgan hisob-kitoblar belgilangan prognozdan 1,3 trln.so'm farq qilib, 37,2 trln.so'mni tashkil etgan. Ushbu hisoblashlar iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi, soliq stavkasi, joriy yil yakuniga kutilayotgan soliq bazasi, prognoz qilinayotgan davr uchun tarmoqlar foydasining kutilayotgan o'sish koeffitsienti, prognoz qilinayotgan davr boshiga soliq bo'yicha qarzdorlik, prognoz qilinayotgan davr boshiga soliq bo'yicha ortiqcha to'lovlar hajmi, mazkur soliq turi bo'yicha o'tgan davrlarda hosil bo'lgan yig'iluvchanlik ko'rsatkichi dinamikasi, qonunchilikdagi o'zgarishlar, prognoz qilinayotgan yil uchun ko'zda tutilayotgan soliq imtiyozlari, haqiqiy soliq tushumlari (jumladan, bir martalik operatsiyalarni hisobga olgan holda tushumlarning tuzatilgan summasi) mezonlari asosida amalga oshirildi.

Joriy moliyaviy yil uchun tushumlar bazasini aniqlashda haqiqiy tushumlar tizimli bo'lmagan va ishlab chiqarish faoliyatiga bog'liq bo'lmagan bir martalik to'lovlarni, xususan, vaqtinchalik omillar tufayli olingan katta miqdordagi yillik qayta hisob-kitoblarni istisno qilishi mumkin, shu jumladan narxlarning o'zgarishi, tarkibiy o'zgarishlar, soliq tekshiruvlari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan summalar. Byudjet

daromadlarini barqarorlashtirish omili sifatida yuqorida keltirilgan prognozlashtirish metodlarini amaliyotga tatbiq etish zaruriyatidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Soliq qo'mitasi hamkorligida "Byudjetning soliq tushumlarini prognozlashtirish" dasturiy ta'minotini yaratish yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

Takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-357-son qarorining 2-ilovasi 9-bandi bilan tasdiqlanib, dasturiy ta'minotni 2023-yil iyul oyiga qadar amaliyotga joriy qilish vazifasi belgilandi.

Mazkur qaror ijrosi yuzasidan "Byudjetning soliq tushumlarini prognozlashtirish" dasturiy ta'minotini yaratilib, Soliq qo'mitasining 2023-yil 18-maydagi 106-sonli buyrug'i asosida amaliyotga joriy etildi.

Bugungi kunda, dasturiy ta'minot orqali 6 ta soliq turi bo'yicha 2022-yil uchun va 3 ta soliq turi bo'yicha 2023-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari shakllantirilib, test sinovidan o'tkazilmoqda. Dastlabki shakllantirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Respublika miqyosida foyda solig'i bo'yicha 93 foiz, jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha 95 foiz va aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha 87 foiz hamda boshqa soliq turlari bo'yicha o'rtacha 90 foiz atrofida aniqlikka erishilmoqda.

Shuningdek, hududlar kesimida ham prognoz ko'rsatkichlarining aniqlik darajasi o'rtacha 90-92 foizni tashkil etmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

To'g'ri soliqlarning asosiy rollaridan biri jismoniy shaxslar va korxonalar o'rtasida soliqqa rioya qilishni rag'batlantirishdir. Adolatli va oqilona soliq siyosatini amalga oshirish orqali hukumatlar soliq to'lovchilarni soliq majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishga undashi mumkin. Bu nafaqat soliq solinadigan bazani mustahkamlaydi, balki soliq to'lovchilar va soliq organlari o'rtasida ishonch va hamkorlik hissini uyg'otadi.

Aniq va ochiq soliq qonunchiligini ta'minlash, soliq to'lovchilarga o'z vaqtida va to'g'ri ma'lumotlarni taqdim etish, soliq organlari va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi

muloqotni rivojlantirish orqali soliq tizimida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish. Bu ishonchni kuchaytiradi, soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytiradi va umumiy muvofiqlikni yaxshilaydi.

**Adabiyotlar/Literatura/Reference:**

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi 2020.- 640 b.

Нормурзаев, У. (2021). Пути эффективного использования налоговых льгот для поддержки предпринимателей. Экономика и инновационные технологии, (4), 355–362. извлечено от [https://inlibrary.uz/index.php/economics\\_and\\_innovative/article/view/11954](https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11954)

Нормурзаев, У. . (2023). Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси доирасида молия бозорининг долзарб муаммолари тадбиркорликни тенг рақобат шароитларини яратиш ҳамда яширин иқтисодиёт улушини қисқартириш йўлари. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 88–89. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19032>

Нормурзаев, У. (2023). Солиқ имтиёзлари бериш тартибини такомиллаштириш масалалари. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(1), 334–339. [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a51](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a51)

Нормурзаев, У. (2023). Яширин иқтисодиётни камайитиришда солиқ органларининг аҳамияти. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(2), 215–221. Retrieved from <https://e-itt.uz/index.php/eitt/article/view/66>